



## YOSH DZYUDOCHILARNING FUNKTSIONAL TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS MASHQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Davronov Farmon Mardon O'g'li

Buxoro Davlat Universiteti, Sport va san'at fakultet,  
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19674681>

### ARTICLE INFO

Received: 4<sup>th</sup> April 2026  
Accepted: 5<sup>th</sup> April 2026  
Published: 20<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*falsafiy antropologiya, yoshlar dunyoqarashi, suyuq zamonaviylik, eksentrik pozitsionallik, globallashuv, raqamli muhit, begonalashuv (alienatsiya), madaniy gibridlashuv.*

### ABSTRACT

*mazkur maqolada yoshlar dunyoqarashi fenomeni zamonaviy falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda Maks Sheler, Helmut Plessner va Arnold Gelen kabi mutafakkirlarning inson tabiatiga doir fundamental nazariyalari hamda Zigmunt Baumanning "suyuq zamonaviylik" konsepsiyasi asosida bugungi raqamli va globallashgan muhitda yoshlar identikligining transformatsiyasi ochib berilgan. Maqolada axborot davrining yoshlar ruhiyatiga ta'siri, jumladan, madaniy gibridlashuv, begonalashuv va qadriyatlar inqirozi masalalari tanqidiy ko'rib chiqiladi.*

Inson tabiatining murakkabligi, uning koinotdagi o'rnini va o'zlikni anglash jarayonlari azal-azaldan falsafiy tafakkurning diqqat markazida bo'lib kelgan. Falsafiy antropologiya aynan shu masalalarni tahlil qiluvchi, insonning mohiyati, uning mavjudlik shart-sharoitlari, ruhiy-biologik butunligi hamda dunyo bilan munosabatlarini yaxlit tizim sifatida o'rganuvchi fundamental yo'nalish hisoblanadi. Tarixiy nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu yo'nalishning ildizlari qadimgi yunon va Uyg'onish davri mutafakkirlarining qarashlariga borib taqalib, Oqartuvchilik davrida Immanuel Kant, Devid Yum va Iogann Gotfrid Gerder asarlarida yangicha kognitiv bosqichga ko'tarilgan. O'n to'qqizinchi asrga kelib, Ogyust Kont, Lyudvig Feyerbax, Karl Marks va Fridrix Nitshe kabi mutafakkirlar insonni jamiyat, iqtisodiyot va iroda nuqtai nazaridan tahlil etib, klassik antropologik paradigmalarni shakllantirdilar. Biroq, aynan yigirmanchi asrning birinchi yarmida, nemis intellektual muhitida falsafiy antropologiya mustaqil tizimli fan va o'ziga xos maktab sifatida maydonga chiqdi.

Yoshlarning ijtimoiy voqelik bilan o'zaro munosabatlarini teranroq anglash uchun yigirmanchi asr nemis falsafiy antropologiyasining "triumvirati" deb e'tirof etilgan Maks Sheler, Helmut Plessner va Arnold Gelenlarning fundamental nazariyalariga murojaat qilish zarur [1]. Ularning inson tabiatiga doir xulosalari bugungi globallashgan yoshlar dunyoqarashini tahlil qilish uchun asosiy metodologik baza bo'lib xizmat qiladi.

Maks Sheler o'zining inson tabiati va tarix falsafasiga bag'ishlangan asarlarida anti-naturalistik va personalistik yondashuvlarni ilgari surdi. Shelerning ta'kidlashicha, qanday tarix konsepsiyasi tanlanishi bevosita qanday inson konsepsiyasi mavjudligidan kelib chiqadi [2]. Uning falsafiy antropologiyasida "ruh" (Geist) va "hayotiy impuls" o'rtasidagi dialektik ziddiyat markaziy o'rin tutadi. Garchi ruh o'z-o'zidan dunyoni anglash imkonini bersada, real o'zgarishlarni amalga oshirish uchun u doimo hayotiy quvvatlarga muhtojdir.

Shelarning yoshlar ijtimoiylashuvi va ta'limiga bevosita daxldor bo'lgan eng muhim g'oyalardan biri bu uning "yetakchi namunalar" nazariyasidir. Unga ko'ra, yetakchilar va izdoshlar (shu jumladan, jamiyat va yoshlar) o'rtasidagi munosabatlar ishonch hamda qo'rquv kabi hissiyotlarga asoslanadi. Bu hissiyotlarning qaysi biri ustunlik qilishi yoshlar qalbida va ongida hukmronlik qiluvchi ideal namunalar orqali belgilanadi. O'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyoqarashi ana shu ichki ideallar hamda ijtimoiy qadriyatlar tomonidan shakllantiriladi. Agar yoshlar yuksak aqliy va ma'naviy ideallardan uzoqlashib, faqatgina biologik instinktlar yoki iste'molchilik namunalari (masalan, zamonaviy "shou-biznes" qahramonlari yoki pragmatik materialistlar) ta'sirida qolsa, ularning dunyoqarashi torayadi, natijada qadriyatlar devalvatsiyasi yuzaga keladi. Shelarning fikricha, o'zimizni qanday namunalar orqali ideallashtirishimiz bizning jamiyatdagi ahloqiy yo'nalishimizni (moral tenor) to'liq belgilab beradi.

Inson mavjudligini hayvonot olamidani ajratib turuvchi xususiyatlarni tahlil qilar ekan, Helmut Plessner "eksentrik pozitsionallik" tushunchasini muomalaga kiritdi. Plessner yondashuviga ko'ra, inson shunchaki o'z atrof-muhitida yashovchi hayvon emas; u o'z muhitidan tashqariga chiqq oladigan, o'z markazidan chetlashib, o'zini chetdan obektiv kuzata oladigan mavjudotdir. Inson hamisha o'z tabiatiga ko'ra "sun'iy" bo'lishga mahkumdur.

Yoshlarning jamiyatdagi xatti-harakatlari va o'zlikni anglash jarayonlarini aynan shu "eksentrik" holat orqali izohlash mumkin. Yoshlik davrida individning ijtimoiy guruhlarga moslashuvi doimiy ravishda "niqob kiyish va niqobni yechish", shuningdek, sharmandalik hissiyoti va e'tirof etilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj o'rtasidagi dialektikadan iborat bo'ladi. Yoshlar atrofdegilar nazarida qanday ko'rinishlarini chuqur his qiladilar va aynan shu eksentrik refleksivlik orqali ijtimoiy guruhning hukmron normalarini o'zlashtiradilar. Zamonaviy raqamli olamda, xususan ijtimoiy tarmoqlarda o'z imijini uzluksiz tahrirlash (masalan, profillar, avatarlar va "layklar" tizimi orqali) Plessner aytgan ijtimoiy ro'l o'ynash va sun'iylik qonuniyatining texnologik in'ikosidir.

Arnold Gelen esa insonni biologik jihatdan "nuqsonli mavjudot" deb ataydi. Unga ko'ra, inson o'zining tug'ma instinktlari, jismoniy himoya qobiqlari va tabiiy qobiliyatlari bilan tabiatda yashab qolishga yetarli darajada moslashmagan. Shu tabiat bergan "kamchilik"ni qoplash uchun inson madaniyat, til, ijtimoiy institutlar va texnologiyalarni yaratishga majburdir [3]. Bu nazariya bugungi texnologik va raqamli axborot muhitida o'zining yangicha, yorqin isbotini topmoqda.

Yoshlar globallashtan dunyoda an'anaviy institutlarga suyanish o'rniga, kundalik hayotlarining barcha jabhalarida raqamli qurilmalar hamda axborot texnologiyalariga to'liq tayanmoqdalar. Leroi-Guran (Leroi-Gourhan) va Li Zehou kabi faylasuflar Gelen nazariyasini davom ettirib, texnologiyani "inson xotirasining tashqariga chiqarilishi" (externalization of human memory) va tana a'zolarining uzaytirilishi deb baholaydilar. Ya'ni, axborot asrida yoshlarning bilim, xotira va ijtimoiy aloqalari bevosita ularning smartfonlari va raqamli tarmoqlarida saqlanmoqda. Bu holat yoshlarni axborotga oson yetishish imkoniyati bilan ta'minlasa-da, ayni paytda ularni texnologiyasiz o'z qilib qo'yadi.

Zamonaviy yoshlar dunyoqarashini tubdan o'zgartiruvchi eng ta'sirchan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalardan biri Zigmunt Bauman tomonidan ishlab chiqilgan "Suyuq zamonaviylik" (Liquid Modernity) nazariyasidir. Baumanning ijtimoiy-antropologik tahlili shuni ko'rsatadiki, insoniyat an'anaviy, barqaror va o'zgarmas qoidalar ustiga qurilgan "qattiq" (solid) jamiyatdan muttasil o'zgaruvchan, chegara bilmas va beqaror "suyuq" (liquid) jamiyatga qadam qo'ydi.

Qattiq zamonaviylik davrida ijtimoiy muassasalar, oilaviy rishtalar va mehnat bozoridagi maqom mustahkam zaminga ega bo'lib, inson o'z identikligini uzoq yillik intilish va sadoqat orqali qura olar edi [4]. Sotsiologiyada bu holat ko'pincha "ziyoratchi" metaforasi bilan ifodalangan: yosh individ go'yoki ma'lum bir ma'naviy, intellektual yoki moddiy manzil sari yo'l olgan ziyoratchi bo'lib, ta'lim olish, kasb egallash, oila qurish kabi qat'iy chizilgan hayotiy

qoliplardan o'tgan. Ziyoratchi hayotining har bir bosqichi unga kuchli ma'no va maqsad bag'ishlagan.

Biroq bugungi suyuq zamonaviylik sharoitida voqelikning har qanday ko'rinishi doimiy fluidlik holatida bo'lib, uzoq muddatli majburiyatlar va barqaror qadriyatlar o'rnini lahzalik ehtiyojlar, giper-iste'molchilik va moslashuvchanlik egalladi. Yoshlar endilikda o'z identikligini mustahkam poydevor ustiga qura olmaydilar. Ular ziyoratchi emas, balki qisqa muddatli tajribalar qidiruvchi "sayyoh" yoki sarson "darbadar" maqomiga tushib qolganlar. Jamiyat tizimlari yoshlarni "egiluvchan" bo'lishga, bir joyda qotib qolmasdan, muttasil ravishda kasbi, imiji va qarashlarini o'zgartirib turishga majbur qiladi. Deregulyatsiya va giper-iste'molchilik muhitida yosh subyektlar qat'iy boshqaruvchisiz, hayotiy kompasga ega bo'lmagan shaxslarga aylanib, ularning sotsial qatlamlardagi harakati tartibsiz tus olmoqda.

Ushbu jarayon ta'lim tizimining qadriyatlariga ham o'zining halokatli ta'sirini o'tkazmoqda. Zamonaviy ta'lim falsafasi uzoq muddatli maqsadlarni qariyb rad etib, tezkor natijalar, vaqtinchalik malakalar va moslashuvchan ta'lim "paket"larini qadrlay boshladi. Bu hodisa yoshlarda teran, izchil falsafiy dunyoqarash o'rniga, faqat pragmatik, bozor konyunkturasiga moslashuvchan va utilitar fikrlash tarzi shakllanishiga olib kelmoqda. Bauman bu ekzistensial inqirozni "noaniqlik bilan yashash san'ati" deb ataydi va bunday tranzit davrida haqiqiy va uzilishsiz ijtimoiy aloqalarni o'rnatish g'oyat mushkul ekanligini ta'kidlaydi. Noaniqlikning surunkali tus olishi ko'plab o'smirlar va yoshlarning mustahkam shaxsiy va qadriyatli identiklikni shakllantirishiga eng asosiy to'siq bo'lmoqda.

Globallashuv va telekommunikatsiya texnologiyalari yoshlarning dunyoqarashini mahalliy chegaralardan olib chiqib, global maydonga ulaydi. Bu ijtimoiy-madaniy integratsiya fenomenning ham progressiv, ham destruktiv tomonlari mavjud. Bir tomondan, globallashuv yoshlarning fikrlash gorizontini kengaytirib, ularning boshqa madaniyatlar, falsafiy qarashlar (masalan, sharqona so'fiylikdan tortib antik stoitsizmga) va turfa xil g'oyalarga tolerantligini oshiradi [5]. G'arb va Sharq qadriyatlari o'rtasidagi uzluksiz integratsiya yoshlar o'rtasida "madaniy gibridlashuv" fenomenini keltirib chiqarmoqda. Bunda an'anaviy mahalliy urf-odatlar global oqimlar bilan sintezlashib, yangicha ijodiy turlar va madaniy identifikatsiya shakllari paydo bo'ladi. Xitoy, Hindiston va Indoneziya kabi qadimiy o'choqlarda yoshlar o'z milliy urf-odatlarini saqlab qolish uchun texnologiyalardan kreativ foydalanib, yangi kosmopolit dunyoqarash bilan uyg'unlashmoqdalar.

Biroq, globallashuv mass-madaniyat va kuchli davlatlar axborot qudratining butun dunyo bo'ylab yoyilishiga xizmat qilayotgani "madaniy gomogenizatsiya" xavfini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonda dominant global madaniyat ko'plab zaif mahalliy identikliklarni yutib yuboradi.

Qadriyatlar intervensiyasi oqibatida yuzaga keladigan eng xatarli hodisa bu – ma'naviy "begonalashuv" va dunyoqarashdagi ma'nosizlikdir. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar va virtual o'yinlarga haddan tashqari tobeligi, tadqiqotlarga ko'ra, haqiqiy voqelikdan uzoqlashishga olib keladi. Axborot shunchaki betaraf vosita emas. Uning haddan ziyod ko'pligi va tezligi insonning chuqur tahliliy muloqot qilish qobiliyatini yemirib, o'rniga sabrsizlikka tayangan yuzaki fikrlashni odat qilib qo'yadi. Rus olimlari ta'kidlaganidek, internetdagi bunday o'ta tez aloqa tizimlari shaxsiyatni deformatsiya qilib, uning axloqiy va ma'naviy rivojlanish jarayonlarini "bo'g'ib" qo'yadi; natijada insonlar kognitiv pasayishni boshdan kechirishlari kuzatilgan.

Dunyoqarash nafaqat sotsial, balki bevosita psixologik fenomendir. Olimlar (xususan, Heuer) dunyoqarash insonning emotsiyalariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatib o'tishgan. Yaqinda xitoylik tadqiqotchilar tomonidan 2,351 nafar yoshlar ishtirokida o'tkazilgan yirik psixologik tahlil shuni tasdiqladiki, yoshlardagi depressiya, xavotir va stress (DAS – Depression, Anxiety, Stress) darajasi ularning dunyoqarashi xarakteriga bevosita aloqadardir [6]. Strukturaviy Tenglamalarni Modellashtirish usuli yordamida aniqlanishicha, ijobiy, mustahkam va ma'noga ega bo'lgan dunyoqarash yoshlardagi ruhiy inqirozlarni sezilarli darajada kamaytiradi (manfiy

prognoz qiluvchi effekt). Psixologik egiluvchanlik esa bu jarayonda asosiy vositachi rolini o'ynaydi.

Bugungi kunda maktab va universitetlarning monopollik maqomi zaiflashib, ularning o'rnini doimiy faol tarmoq tuzilmalari, ochiq ta'lim resurslari va ijtimoiy onlayn platformalar egallamoqda. Universitet diplomi kabi ramziy kapital o'zining mutlaq sotsial statusini yo'qotmoqda, uning o'rniga "umrbod ta'lim" qadriyatiga asoslangan kognitiv ko'nikmalar oldinga chiqdi. Bilimlarning tez eskirishi yoshlarni muntazam ravishda yangi informatsiyalarni o'zlashtirishga majbur etadi, busiz ular mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la olmaydilar. Ta'lim asosan instrumentallashtirilgan bo'lib, uning sof dunyoqarashni tarbiyalovchi ahamiyati pasayib, tezkor iqtisodiy foyda beruvchi funksiyasi kuchayib bormoqda. Shu sababdan ham falsafiy tafakkurning o'zlashtirilishi axborot shovqini ichida qolib ketayotgani ayni haqiqatdir.

Globalashuvning yuqorida sanab o'tilgan universal ta'sirlari bilan bir qatorda, har bir jamiyat o'zining lokal, milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yoshlar dunyoqarashini maqsadli boshqarishga urinadi. O'zbekiston sharoitida "Yangi O'zbekiston" paradigmasi doirasida yoshlar siyosati – bu nafaqat iqtisodiy resurslar, balki millatning ma'naviy qiyofasini tiklash strategiyasidir. Mustaqillik yillarida yoshlar dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida axloqshunoslik, sotsiologiya, falsafiy antropologiya va aksiologiya kabi fanlarning o'rni tubdan qayta ko'rib chiqildi.

Sovet davrida yoshlar ongiga O'zbekiston xalqining haqiqiy davlatchilik tarixi yashirilib, uning go'yoki "1917- yildan keyin madaniylashgani" kabi soxta, mafkuraviy zararli konsepsiyalar singdirib kelindi. Mustaqillik ushbu tarixiy inyeksiyalarni bekor qilib, xalqning uzoq o'tmishi va uning asl tarixiy obyektiv realligini yoshlar dunyoqarashining fundamental qismiga aylantirdi. Madaniy identiklikni saqlashning antropologik sharti millat "genofondi" hisoblanadi. Tadqiqotchilar haqli ravishda e'tirof etishadiki, globalashuv va turli oqimlar ta'sirida avloddan avlodga o'tib kelayotgan tabiiy-tarixiy xislatlarning yemirilishi oqibatida millat tez o'zgarib, o'zining tarixiy betakrorligini umrbod yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu bois sog'lom yosh avlodni ma'nan va jismonan shakllantirish shunchaki siyosiy emas, balki chuqur ekzistensial ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar – bular toshga o'yilgan qoliplar emas, balki yoshlarning raqamli muhitda to'g'ri orientatsiya olishini osonlashtiruvchi navigatsiya tizimidir.

Zamonaviy o'zbek yoshlari dunyoqarashining ajralmas elementlari bu "uzluksiz ta'lim" hamda qonuniy mehnat faoliyatidir. Inson shaxsining namoyon bo'lishi, uning ruhiy potensialining ochilishi bevosita ijtimoiy foydali mehnat va munosib ish o'rni bilan bog'liq bo'lib, ishsizlik inson degradatsiyasiga va ijtimoiy marginalizatsiyaga olib keladi. Yoshlar doimiy ta'lim olib, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarga aylanishi bozor iqtisodiyotining pragmatik sharti bo'lishi bilan birga, fuqarolik jamiyati rivojining kognitiv asosi hamdir.

Yana bir yangi fenomen bu – yoshlarda ekologik dunyoqarashning shakllanishidir. Bugungi ekologik tahdidlar sharoitida yoshlar tabiatga nisbatan shunchaki iste'molchi bo'lib emas, balki uni saqlovchi sifatida yondashmoqdalar. Ekologik madaniyatning shakllanishi praksilogik (amaliy hatti-harakatlar) va gnoseologik (ilmiy bilish) uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat natijalariga bo'lgan ishonch va tabiatni asrash e'tiqodi yoshlarning koinot va muhitga antropologik munosabatini obektivlashtiradi va qadriyatga aylantiradi.

Zamonaviy falsafiy antropologiyada yoshlar dunyoqarashi mutlaq o'lchamga ega bo'lmagan, o'ta ziddiyatli, dinamik va ko'p qatlamli fenomen sifatida talqin etiladi. Klassik mutafakkirlar – Maks Sheler, Helmut Plessner va Arnold Gelen – tomonidan kashf etilgan inson tabiatining universal prinsiplari (ruh va impuls dialektikasi, eksentrik pozitsionallik va insonning biologik himoyasizligi) bugungi raqamli, texnologik inqilob davrida mutlaqo yangicha vizualizatsiyaga uchramoqda. Yoshlar o'z identikliklarini yaratish uchun sun'iy ijtimoiy rollarga sho'ng'iyotgan, ammo o'z xotirasi va bilish qobiliyatini sun'iy intellekt va kompyuterlarga "topshirib" qo'yayotgan bir tarixiy evrilish davrida yashamoqdalar.

Zigmunt Baumanning “suyuq zamonaviylik” deb atagan sotsio-madaniy iqlimi yoshlarning barqaror, mustahkam hayotiy maqsadlarga ega bo‘lishini misli ko‘rilmagan darajada qiyinlashtirmoqda. Iste‘molchilik madaniyati, institutsional majburiyatlarning pasayishi va texnologiyalarning gegemonligi yoshlarni an‘anaviy ziyoratchi emas, balki manzilsiz sarson sayyohlarga aylantirmoqda. Globallashuv jarayonining ma‘naviy “gibridlashuv” kabi progressiv xususiyatlari bilan birga, begonalashuv (alienation), madaniy yagona qolipga tushish (homogenization) va qadriyatlarining parchalanishi oqibatida o‘smirlar o‘rtasida depressiya, xavotir kabi chuqur ruhiy va antropologik ziddiyatlar urchib bormoqda.

O‘zbekiston misoli ko‘rsatmoqdaki, shunday murakkab raqamli reallik sharoitida yoshlar ruxiyati va dunyoqarashini sof utilitar maqsadlarda qoldirib bo‘lmaydi. Uzluksiz ta‘limni qo‘llab-quvvatlash, mehnat orqali shaxsni yuzaga chiqarish, sof tarixiy tafakkurni asrash va milliy genofondni madaniy intervensiyalardan saqlash orqaligina yoshlarda ijtimoiy-falsafiy immunitetni shakllantirish mumkin. Falsafiy antropologiyaning nazariy xulosalari amaliyotda aynan shunga chaqiradi: yoshlar shunchaki axborot davrining “obyekti” emas, balki qadriyatlarni, ruhiyat va tafakkur sof holda birlashgan kognitiv irodani yaratuvchi ongli “subyekt”larga aylanishi shart. Busiz raqamli kelajak insonning o‘z insoniyligidan to‘liq begonalashuvi bilan tugashi muqarrardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Helmuth Plessner. Edited by Julia Gruevska, Hans-Ulrich Lessing, Kevin Liggieri. Helmuth Plessner: Philosophische Anthropologie. Suhrkamp Verlag. Felipe Catalani (University of São Paulo). 2019. 256 p.
2. David O’Brien, M.A. Max Scheler’s the human place in the cosmos as a Response to transhumanism, the technological Singularity, and post-biological evolution. Department of philosophy maynooth university national university of ireland. december 2022. 168 p.
3. Diego Colomé. Examining the Anthropological–Philosophical Implicit Content in Carl Menger’s Value Theory Through Three Philosophers. Published: 29 September 2025. 10(5), 109.
4. FANCOURT, GRAEME (2010) The Participative Self: An Enquiry into the merits and limits of a Theological and Postmodern Anthropology. Doctoral thesis, Durham University. Durham, DH1 3LE. 2010. 185 p.
5. Umarov Khumoyunmirzo. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. The Dynamics of Spiritual Crisis and Awakening in Youth Through the Lens of Eastern and Western Cultural Paradigms. 31 July 2025. 161-165 p.
6. Farah Ibrahim. Worldview: Implications for Culturally Responsive and Ethical Practice. Cultural and Social Justice Counseling (pp.51-75). January 2016. DOI:10.1007/978-3-319-18057-1\_3